



XITOIY METAFORIK TIZIMIDA PISHIRISH USULLARINING KONSEPTUAL
XARITALANISHI

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilida taom tayyorlash usullariga (qovurish, qaynatish, bug'lash, pishirish, aralashtirish va boshqalar) asoslangan metaforik birliklarning konseptual xaritalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda pishirish amallarining lingvokognitiv xususiyatlari, ularning manba domeni sifatidagi konkret kulinariya jarayonlaridan maqsad domeni bo'lgan mavhum tushunchalarga — inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, psixologik holatlar, strategiyalar va voqea-hodisalar tasviriga — ko'chishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: pishirish usullari, gastronomik metafora, lingvokognitiv tahlil, manba domeni, maqsad domeni, konseptual xaritalanish.

Xitoy tilida gastronomik metaforalar, xususan pishirish usullariga asoslangan metaforalar, tilning faqat leksik boyligini emas, balki uning chuqur kognitiv va madaniy qatlamlarini ham aks ettiradi. Pishirish jarayonlari xitoy xalqining kundalik hayotida muhim o'rin tutganligi sababli, bu soha bilan bog'liq konseptlar nutqda keng metaforik salohiyatga ega bo'lgan manba domen sifatida shakllangan. Qaynatish, qovurish, bug'da pishirish, dimlash, tuzlash kabi jarayonlarning fizik xususiyatlari — issiqlik, bosim, vaqt, qayta ishlash darajasi, yumshash yoki qotish kabi omillar — inson faoliyati, ijtimoiy jarayonlar, psixologik holatlar va voqea-hodisalar haqidagi abstrakt tushunchalarni obrazli va tushunarli shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Xitoy oshxonasi nafaqat tegishli masalliq'larga, nozik ishlov berishga, balki pishirish uchun issiqlikka ham e'tibor beradi. 蒸 *zhēng* bug'lamoq, 烹 *pēng* qaynatib yoki aralashtirib pishirmoq, 炸 *zhà* yog'da chuqur qovurish, 煎 *jiān* kam yog'da qovurish, 煮 *zhǔ* qaynatmoq, 炒 *chǎo* tez qovurmoq, 渍 *zì* tuzlamoq kabi ko'plab umumiy pishirish usullari mavjud.

(1) Tarkibida “炒” *chǎo* “qovurmoq” fe'li bo'lgan metaforalar.

Masalan: 炒冷饭 *chǎo lěng fàn* qovurilgan sovuq taom (avval aytilgan yoki qilingan ishni takrorlash), 炒鱿鱼 *chǎo yóu yú* qovurilgan kalmar (ishdan bo'shatish), 炒黄鱼 *chǎo huáng yú* qovurilgan sariq baliq (qo'shimcha daromad).

“现在许多企业职工身份仍分三六九等,干部、固定工端的是‘铁饭碗’,而合同制工人弄不好就会被‘炒鱿鱼’。” (“报刊精选” 1994-12-02, 12版)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Hozirgi vaqtda ko‘pgina korxonalarda xodimlarning maqomi hali ham uch, olti yoki to‘qqiz darajaga bo‘lingan. ‘Temir guruch kosasi’ uchun kadrlar va doimiy ishchilar mas’ul bo‘lib, shartnoma bo‘yicha ishchilar buni bajarmasa, ‘ishdan bo‘shatiladi’.”

Xitoycha “炒鱿鱼” *chǎo huáng yú* metaforasi ishdan bo‘shatilmoq degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjimasi “qovurilgan kalmar” bo‘lgan metafora dastlab Guangdongagi erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan mehmonlarni xursand qilish uchun tayyorlangan mazali taomga ishora qiladi, u idiomaga aylanishidan oldin, bu taomning nomi edi. Keyinchalik qovurish jarayonida kalmar aylanib silindrsimon shaklga aylanadi, bu esa o‘ralgan to‘shak shakliga o‘xshaydi. Ilgari Guangdong yoki Gonkongga ishlash uchun kelgan xorijliklar o‘zlari bilan faqat yengil yuk olib kelishgan, xo‘jayin tomonidan xodim ishdan bo‘shatilganda, u yukini yig‘ib, chiqib ketishi kerak bo‘lgan. “Qovurilgan kalmar” shakli va “o‘ralgan” shakli o‘rtasidagi o‘xshashlikni bir-biriga bog‘lashimiz mumkin.

(2) Tarkibida “煮” *zhǔ* “qaynatmoq” fe‘li bo‘lgan metaforalar. Masalan: 一锅煮 *yī guō zhǔ* bitta qozonda qaynatmoq (har xil odamlarga yoki narsalarga farqlamasdan, bir xil munosabatda bo‘lmoq), 煮饺子 *zhǔ jiǎozi* chuchvara qaynatmoq (ishga ish qo‘shilish).

(3) Boshqa toifalar.

Masalan: 夹生饭 *jiā shēng fàn* yarim pishirilgan guruch (bajarilishi qiyin bo‘lgan, oxiriga yetkazilmagan ish), 大杂烩 *dà zá huì* aralash taom (tasodifiy to‘plangan, tizimsiz narsalar yig‘indisi), 磨豆腐 *mó dòufu* tofu maydalamoq (bir ishni qayta-qayta takrorlamoq), 煲电话粥 *bāo diànhuà zhōu* telefonda uzoq vaqt bo‘tqa pishirmoq (telefonda uzoq vaqt gaplashmoq).

Pishirish usullarining metaforik xaritalanishi shuni ko‘rsatadiki, xitoy madaniyatida ovqat tayyorlash jarayoni nafaqat amaliy faoliyat, balki tushunish, baholash, boshqarish, kurashish, shakllantirish kabi kognitiv jarayonlar bilan ham bevosita bog‘liq. Shu sababli gastronomik metaforalar til–tafakkur–madaniyat uchligining integratsiyalashgan mahsuli sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, pishirish usullariga asoslangan metaforalar Xitoy tili metaforik tizimining o‘ziga xos komponenti bo‘lib, ular orqali insonning ijtimoiy hayoti, psixologik kechinmalari, harakat modeli va jamiyatdagi turli holatlar obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalanadi. Bu esa mazkur metaforalarni lingvokognitiv tadqiqotlar uchun boy va samarali materialga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. *Metaphors We Live By* / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFakkUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.

3. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.

